Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Irismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuritdinova Dilshodakhon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta'sir etuvchi demografik omillar ta'siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	



O'ZBEKISTONDA HAYOT SUG'URTASINING JORIY ETILISHI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI DEMOGRAFIK OMILLAR TA'SIRI

Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi

O'zbekiston Milliy universiteti dosent v.v.b., PhD,
Alfragunus Universiteti Moliya kafedrasida dosent v.v.b., PhD
tashqi o'rindoshlik asosida, madinabonu1311@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda hayot sug'urtasi bozorining rivojlanish holati, uning ahamiyati va aholining demografik xususiyatlari (yosh, jins, daromad darajasi, yashash joyi va h.k.) hayot sug'urtasiga bo'lgan ehtiyoj va qiziqishga qanday ta'sir qilishi tahlil qilingan. Shuningdek, hayot sug'urtasini joriy etishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosa va amaliy takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Hayot sug'urtasi, demografik omillar, sug'urta bozori, sug'urta ehtiyoji, yosh, jins, daromad darajasi, yashash joyi, ijtimoiy himoya, sug'urtalash tizimi.

Abstract: This article analyzes the development of the life insurance market in Uzbekistan, its significance, and how the demographic characteristics of the population (age, gender, income level, place of residence, etc.) influence the demand for and interest in life insurance. In addition, the article presents scientific conclusions and practical recommendations for improving the implementation of life insurance.

Key words: Life insurance, Uzbekistan, demographic factors, insurance market, insurance demand, age, gender, income level, place of residence, social protection, insurance system.

Аннотация: В данной статье проанализировано состояние развития рынка страхования жизни в Узбекистане, его значение, а также влияние демографических характеристик населения (возраст, пол, уровень дохода, место проживания и др.) на потребность и интерес к страхованию жизни. Кроме того, представлены научные выводы и практические предложения по совершенствованию внедрения страхования жизни.

Ключевые слова: Страхование жизни, Узбекистан, демографические факторы, страховой рынок, потребность в страховании, возраст, пол, уровень дохода, место проживания, социальная защита, страховая система.

KIRISH

Mamlakatimizda sug'urta bozori iqtisodiy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, hayot sug'urtasi bozori aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va fuqarolarning kelajakdagi ehtiyojlarini kafolatlashda alohida o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda hayot sug'urtasining joriy etilishi va bu yo'nalishda ko'rilayotgan islohotlar, shu jumladan qonunchilik bazasining takomillashtirilishi, aholining moliyaviy savodxonligini oshirishga doir chora-tadbirlar bilan bir qatorda, xalqaro tajribaning tatbiq etilishi ushbu sohaning salmoqli o'sishiga xizmat qilmoqda.

Hayot sug'urtasining ommalashuvi, avvalo, aholining demografik tarkibi, ya'ni yosh guruhlari, gender nisbati, aholining ta'lim darajasi, bandlik holati va urbanizatsiya darajasi kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir. Demografik omillar hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talab va ehtiyoj darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, mazkur mavzuda olib boriladigan tahlillar, nafaqat hayot sug'urtasining rivojlanish istiqbollari belgilash, balki aholi ehtiyojlariga mos strategiyalar ishlab chiqishga ham xizmat qiladi.

Maqolada O'zbekistonda hayot sug'urtasining rivojlanishiga demografik omillarning qanday ta'sir ko'rsatayotgani o'rganilib, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, hayot sug'urtasining iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi o'rni hamda istiqbolli yo'nalishlar yuzasidan xulosa va takliflar ishlab chiqiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hayot sug'urtasining rivojlanishi va uning joriy etilishi masalalari ko'plab tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan. Birinchi navbatda, bu sug'urta turi qanday qilib shaxsiy xavfsizlik va oilaviy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ekanligini ko'rsatish muhimdir. Hayot sug'urtasining asosiy maqsadi – sug'urtalangan shaxs vafot etganida,



uning oila a'zolarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashdir. Shu sababli, hayot sug'urtasi nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston iqtisodiyotida hayot sug'urtasining o'ri va roli asta-sekin kengayib bormoqda. Shu bilan birga, mamlakatda bu sohaga ta'sir qiluvchi bir qator omillar mavjud. Xususan, demografik omillar – aholi tarkibi, yosh tuzilmasi, o'lim darajasi, tug'ilish ko'rsatkichi, va migrasiya jarayonlari hayot sug'urtasiga bo'lgan ehtiyojni belgilovchi asosiy omillar sifatida ajralib turadi. Aholining qarish jarayoni hayot sug'urtasiga bo'lgan talabni oshirgan. Aholining yoshi kattalashgan sari, ular o'z hayotini himoya qilish va oilasini moliyaviy xavf-xatardan saqlashga intilishadi.

Hayot sug'urtasining rivojlanishi uchun yana bir muhim omil – bu iqtisodiy barqarorlik va aholi daromadlari hisoblanadi. Daromadlar oshishi bilan odamlar ko'proq sug'urta mahsulotlariga sarmoya kiritishga tayyor bo'ladilar. Biroq, hayot sug'urtasiga bo'lgan talab nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy omillarga ham bog'liq. Aholining sug'urtaga nisbatan madaniyati, ularning sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchi va umuman, hayot sug'urtasi masalalariga yondoshuvi ham katta ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatda bu sohada hali rivojlanishning boshlang'ich bosqichlari kuzatilmoqda.

O'zbekistonning sug'urta bozorida hayot sug'urtasining joriy etilishi ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan bog'liq. 1991 yildan keyingi yillarda bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni davomida sug'urta bozorining o'sishi va uning yangi qonuniy asosda ishlashi uchun zarur bo'lgan infratuzilma yaratildi. Lekin, bu boradagi muammolar hali ham mavjud. Hayot sug'urtasini keng ommaga tanishtirish, odamlarning bu sohadagi bilim va tushunchalarini oshirish, va ularni bu xizmatlardan foydalanishga rag'batlantirish uchun ko'proq ishlar amalga oshirilishi lozim.

Demografik o'zgarishlar hamda ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar hayot sug'urtasining o'sishiga ta'sir qiladi. O'zbekiston aholisi yosh bo'lsada, sug'urtaga bo'lgan talab asta-sekin ortib bormoqda. Aholining farovonligini oshirish va jamiyatni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati, shu jumladan, sug'urta tizimining rivoji, jamiyatda sug'urta madaniyatining shakllanishi uchun zarurdir.

Xalqaro tajriba, shuningdek, O'zbekiston uchun muhim saboqlarni taqdim etadi. Evropa va Osiyo davlatlarining hayot sug'urtasiga oid muvaffaqiyatli tajribalari, ayniqsa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, qoidalar va qonunlarni yangilash hamda sug'urta kompaniyalarining ishonchligini oshirish bilan bog'liq. Bu amaliyotlar, O'zbekistonda ham sug'urta bozorini rivojlantirish va yangi xizmatlarni joriy etishda muhim yordam beradi.

O'zbekistonda hayot sug'urtasining joriy etilishi va unga ta'sir etuvchi demografik omillarni tahlil qilish, ushbu sohani yanada rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillarni aniqlashga yordam beradi. Bunga nafaqat iqtisodiy islohotlar, balki sug'urta madaniyatini rivojlantirish, aholi orasida sug'urtaga bo'lgan ishonchni oshirish va davlat tomonidan huquqiy bazani mustahkamlash kabi chora-tadbirlar kiradi. Hayot sug'urtasi tizimi jamiyatning ijtimoiy himoyasi va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Bir necha tadqiqotlarda, hayot sug'urtasining joriy etilishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri demografik o'zgarishlar ekanligi ko'rsatilgan. Masalan, Toshkentdagi so'nggi yillarda o'tkazilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, aholining qarish jarayoni hayot sug'urtasiga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirgan. Aholi yoshining o'sishi va uzoq umr ko'rish ehtimolining ortishi, odamlarni o'z hayotlarini sug'urtalashga undagan. Bunda, ayniqsa, o'rta va yuqori yoshlardagi shaxslar orasida hayot sug'urtasiga bo'lgan qiziqish oshgan. Bu tadqiqotlardan birida, 40 yoshdan yuqori shaxslar orasida hayot sug'urtasining afzalliklari haqida anglashuvning yuqori ekanligi ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekistonda o'tkazilgan empirik tadqiqotlar hayot sug'urtasining o'sishi bilan bog'liq iqtisodiy omillarni ko'rsatadi. O'zbekiston iqtisodiyotining o'sishi, aholining daromadlari va ish bilan ta'minlanganlik darajasi hayot sug'urtasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bu omillar, o'z navbatida, odamlarning sug'urtaga bo'lgan ehtiyojini oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sug'urtaga bo'lgan talab, asosan, yuqori daromadli va o'rta sinf vakillari orasida ko'proq kuzatiladi. Ular ko'proq moliyaviy xavfsizlik va farovonlikni ta'minlash uchun hayot sug'urtasidan foydalanishni xohlaydilar.

Hayot sug'urtasi bozorining rivojlanishida ijtimoiy va madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar, ayniqsa, jamiyatning sug'urtaga nisbatan yondoshuvini o'rganishda diqqatga sazovor. O'zbekistonda o'tkazilgan bir necha empirik izlanishlar, aholining sug'urta bozoriga bo'lgan ishonchi va tushunchasining past ekanligini ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, hayot sug'urtasining joriy etilishida muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlarda, odamlarning hayot sug'urtasi bo'yicha bilimlarini oshirish va ularni bu sohada xabardor qilish muhimligini ta'kidlashadi. Shuningdek, mahalliy va xalqaro sug'urta kompaniyalari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati va ishonchliligi ham muhim omil sifatida e'tirof etilgan.

Yana bir muhim empirik tadqiqot, hayot sug'urtasining O'zbekistonda o'rnatilishi va kengayishining davlat siyosati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, sug'urta sohasidagi qonunlarni yangilash va sug'urta xizmatlarini yanada kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar, bozorda raqobatni oshiradi va aholi orasida ishonchni mustahkamlaydi. Bu tahlillar sug'urtaning ahamiyatini tushunishda



va unga bo'lgan talabni oshirishda davlatning roli katta ekanligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, hayot sug'urtasiga bo'lgan talabni oshirish uchun marketing strategiyalarini rivojlantirish va odamlarni bu soha haqida xabardor qilish muhimdir. Xalqaro tajriba ham bu jarayonni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan tavsiyalarni taklif etadi. O'zbekistonning sug'urta bozori hali yosh bo'lsada, empirik tadqiqotlar va tahlillar yordamida uning kelajakda qanday rivojlanishi mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hayot sug'urtasi inson hayoti va sog'lig'i bilan bog'liq moliyaviy xatarlarni kamaytirishga qaratilgan moliyaviy himoya vositasi hisoblanadi. Bu sug'urta turi sug'urtalanuvchining hayoti bilan bog'liq muayyan hodisalar – vafot etishi, ma'lum yoshga etishi yoki baxtsiz hodisaga uchrashi holatlarida belgilangan to'lovlarni amalga oshirishni nazarda tutadi. Hayot sug'urtasi orqali fuqarolar o'zlari va oila a'zolarining kelajakdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Hayot sug'urtasi bir qator muhim vazifalarni bajaradi: u inson umrining muayyan bosqichida yoki favqulodda holatlarda moliyaviy yordam ko'rsatadi, fuqarolarning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va uzoq muddatli jamg'arma imkoniyatini yaratadi. Uning asosiy turlariga muddatli hayot sug'urtasi, doimiy hayot sug'urtasi, jamg'arib boriluvchi va investision hayot sug'urtasi kiradi.

Xalqaro tajribaga nazar tashlasak, rivojlangan mamlakatlarda hayot sug'urtasi aholining kundalik hayotida keng qo'llaniladi. AQSh, Kanada, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda hayot sug'urtasi badallari yalpi ichki mahsulotning muhim qismini tashkil qiladi. Bu davlatlarda fuqarolarning moliyaviy madaniyati yuqori bo'lib, sug'urta xizmatlariga bo'lgan ishonch katta. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida, xususan Xitoy va Hindistonda esa aholining ko'payishi, daromad darajasining o'sishi va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida hayot sug'urtasi xizmatlari jadal sur'atlar bilan kengaymoqda. U erda davlat tomonidan ham bu soha qo'llab-quvvatlanadi, aholiga qulay sharoitlar yaratilgan. O'zbekiston tajribasida esa hayot sug'urtasi bozori rivojlanish bosqichida bo'lib, so'nggi yillarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Biroq aholining moliyaviy savodxonligi etarli emasligi, sug'urta xizmatlariga ishonchning pastligi va xizmat turlarining cheklanganligi hali ham bu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shunday ekan, xalqaro tajribani chuqur o'rganish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali hayot sug'urtasi xizmatlarini yanada samarali rivojlantirish mumkin bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talab asta-sekin ortib bormoqda. Bu avvalo aholining moliyaviy savodxonligi oshib borayotgani, to'lov qobiliyatining yaxshilanishi va hayotiy ehtiyojlarning o'zgarishi bilan bog'liq. Raqamli texnologiyalarning joriy qilinishi ham sug'urta xizmatlarining aholiga yaqinlashtirilishiga olib keldi. Yirik sug'urta kompaniyalari tomonidan hayot sug'urtasi bo'yicha jamg'arib boriluvchi va investision mahsulotlar taqdim etilmoqda. Ba'zi banklar va moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda «bankassuransiya» tizimi rivojlantirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hayot sug'urtasi bo'yicha yig'imlar hajmi yildan-yilga oshmoqda, bu esa bozor salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi.

Shunga qaramay, hayot sug'urtasi bozorida bir qator muammolar mavjud. Birinchi navbatda, aholining aksariyat qismi hali-hanuz hayot sug'urtasi xizmatlarining mazmun-mohiyati va afzalliklarini to'liq tushunmaydi. Moliyaviy savodxonlikning pastligi va sug'urta xizmatlariga nisbatan ishonchsizlik darajasi yuqoriligidan qolmoqda. Ikkinchidan, sug'urta mahsulotlarining xilma-xilligi va mijoz ehtiyojlariga mosligi etarli darajada emas. Ko'pchilik kompaniyalar an'anaviy xizmatlar bilan cheklanib qolmoqda. Uchinchidan, sug'urtachilar faoliyatini raqobat asosida rag'batlantiruvchi mexanizmlar sust rivojlangan. Bundan tashqari, marketing va targ'ibot ishlari etarlicha samarali yo'lga qo'yilmagan. Ushbu muammolarni hal etish uchun qonunchilikni takomillashtirish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, innovasion mahsulotlarni yaratish va xorijiy tajribani o'rganish orqali hayot sug'urtasi bozorini rivojlantirish zarur.

Hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talab ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy va demografik omillar bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, demografik omillar hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida aholining soni yil sayin ortib borayotgani, yosh tarkibi, bandlik holati, urbanizatsiya darajasi va ta'lim darajasi hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan ehtiyojni bevosita shakllantiradi.

Demografik omillar ichida eng asosiylaridan biri – aholining umumiy soni hisoblanadi. O'zbekistonda aholi soni 2024 yil holatiga ko'ra 37 milliondan oshgan bo'lib, bu katta sug'urta bozori salohiyatini anglatadi. Aholi sonining o'sishi sug'urta xizmatlari iste'molchilari sonining ham ortishiga olib keladi. Shu bilan birga, aholining yosh tarkibi ham ahamiyatlidir. O'zbekistonda aholining katta qismi mehnatga layoqatli yoshdagi (16-59 yosh) fuqarolardan iborat bo'lib, aynan shu toifadagi kishilar hayot sug'urtasiga ko'proq ehtiyoj sezadi, chunki ular oilani boqish, kelajakni rejalashtirish va moliyaviy xavfsizlik haqida o'ylaydigan qatlam hisoblanadi.

Bandlik holati ham muhim demografik ko'rsatkichlardan biridir. Aholi bandligi darajasi yuqori bo'lgan hududlarda hayot sug'urtasiga talab odatda ko'proq bo'ladi, chunki doimiy daromad manbaiga ega shaxslar o'zlarini va yaqinlarini moliyaviy himoya qilishga intiladi. Rasmiy bandlikning nisbatan pastligi esa, aksincha, sug'urtalashga bo'lgan qiziqishni cheklaydi. O'zbekiston bo'yicha 2023 yil holatiga ko'ra, mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasi 65–70% atrofida bo'lib, bu hayot sug'urtasi bozorining o'sishiga imkoniyat yaratadi.




Urbanizatsiya darajasi ham hayot sug'urtasiga ta'sir etuvchi muhim omillardandir. Shaharlarda yashovchi aholining moliyaviy xizmatlardan xabardorligi va ularga kirish imkoniyati yuqori bo'lib, bu joylarda hayot sug'urtasi xizmatlariga talab nisbatan yuqoriroq. O'zbekistonda urbanizatsiya darajasi 2023 yil holatiga ko'ra 51% dan oshgan, bu esa sug'urta xizmatlarini rivojlantirish uchun qulay demografik sharoit yaratmoqda.

Ta'lim darajasi ham ahamiyatli omillardan biri hisoblanadi. Oliy yoki o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan aholining hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan qiziqishi yuqori bo'ladi, chunki bu qatlam moliyaviy savodxonlik darajasi bilan ajralib turadi. O'zbekistonda ta'lim olish darajasi yildan-yilga oshib borayotgan bo'lib, bu tendensiya sug'urta xizmatlariga nisbatan ongli yondashuvni mustahkamlashi mumkin.

1-jadval¹. 2025 yil holatiga O'zbekistonning ayrim demografik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkich	Qiymat
Umumiy aholi soni	37,5 million kishi
Shahar aholisi ulushi	51%
Qishloq aholisi ulushi	49%
Mehnatga layoqatli aholi soni	20,7 million kishi
O'rtacha yosh	28,5 yil

Statistik tahlillar shuni ko'rsatadiki, yuqorida sanab o'tilgan demografik omillar hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talabning shakllanishida bevosita rol o'ynaydi. Jumladan, aholining yosh tarkibi va bandlik darajasi yuqori bo'lgan Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida hayot sug'urtasi xizmatlarining nisbatan tezroq o'sishi kuzatilmoqda. Biroq, aholining kam ta'lim olgan va qishloq joylarda yashovchi qismlarida bu xizmatlarga talab pastligicha qolmoqda. Shunday qilib, demografik omillarni chuqur tahlil qilish hayot sug'urtasi bozorida aniq strategiyalar ishlab chiqish va aholining turli qatlamlariga moslashtirilgan xizmatlarni taklif etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



1- rasm. Demografik omillar va hayot sug'urtasi qamrovi²

Yuqoridagi grafikda O'zbekistonning ayrim viloyatlarida hayot sug'urtasi qamroviga demografik omillarning qanday ta'sir ko'rsatayotgani ko'rsatilgan. Demografik ko'rsatkichlar yuqori bo'lgan hududlarda sug'urta xizmatlariga talab ham nisbatan yuqoriroq. Bu esa sug'urta strategiyalarini mahalliy sharoitga mos ravishda ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda hayot sug'urtasi bozorini rivojlantirish bo'yicha istiqbollar keng va istiqbolli yo'nalishlarga ega. Bugungi kunda ushbu sohaning salohiyatidan to'liq foydalanilmayotgan bo'lishiga qaramay, mavjud

1 <https://stat.uz/>

2 <https://stat.uz/>



demografik resurslar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, aholi ongining o'sishi va davlat tomonidan ko'rsatilayotgan e'tibor hayot sug'urtasi xizmatlarini yanada rivojlantirish uchun muhim zamin yaratmoqda.

Avvalo, hayot sug'urtasi bozorini kengaytirish imkoniyatlarini quyidagicha ko'rsatish mumkin: birinchidan, aholining doimiy o'sib borayotgani va yosh tarkibining asosan mehnatga layoqatli qatlamdan iborat bo'lishi bu bozor uchun katta iste'molchilar bazasini bildiradi. Ikkinchidan, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish orqali hayot sug'urtasiga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirish mumkin. Uchinchidan, raqamli texnologiyalar yordamida xizmatlarni masofadan taqdim etish, mobil ilovalar, onlayn platformalar orqali sug'urtalash jarayonlarini soddalashtirish hayot sug'urtasini ommalashtirishga xizmat qiladi. To'rtinchidan, banklar bilan hamkorlikda bankassuransiya tizimini kengaytirish orqali mijozlarga kompleks moliyaviy xizmatlar ko'rsatish mumkin.

Demografik omillarni hisobga olgan holda bir nechta strategik takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, yoshlar va yangi ish boshlayotgan fuqarolarga yo'naltirilgan maxsus sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish zarur. Bu mahsulotlar qulay to'lov shartlari va uzoq muddatli himoyani o'z ichiga olishi lozim. Ikkinchidan, mehnatga layoqatli aholi uchun pensiya jamg'armalari bilan integrasiyalashgan hayot sug'urtasi dasturlarini yaratish, ularning kelajakdagi moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Uchinchidan, ayollar va qishloq aholisini qamrab oluvchi maxsus tarif va mahsulotlar ishlab chiqilishi lozim. Bu orqali sog'liqni saqlash, ona-bola salomatligi va boshqa ijtimoiy xavflarni moliyaviy himoya qilish mumkin bo'ladi. To'rtinchidan, turli hududlarning urbanizatsiya darajasi va aholining ma'lumot saviyasiga qarab sug'urta mahsulotlarini moslashtirish lozim.

Davlat siyosatida hayot sug'urtasini rag'batlantirish mexanizmlari ham muhim o'rin tutadi. Birinchidan, hayot sug'urtasi mukofotlariga soliq imtiyozlari berilishi, korxona va tashkilotlar tomonidan xodimlar foydasiga hayot sug'urtasi shartnomalarini tuzishga rag'batlantiruvchi mexanizmlarning joriy qilinishi zarur. Ikkinchidan, hayot sug'urtasining ijtimoiy ahamiyati to'g'risida aholiga muntazam ravishda targ'ibot va axborot kampaniyalari o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda reklama faoliyatini kuchaytirish kerak. Uchinchidan, sug'urta tashkilotlari faoliyatini monitoring qilish va ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha davlat nazoratini kuchaytirish, mijozlar huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish lozim.

O'zbekistonda hayot sug'urtasi xizmatlarini rivojlantirish uchun demografik imkoniyatlar, texnologik resurslar va davlat qo'llab-quvvatlovi mavjud. Ushbu resurslardan oqilona foydalanish, aholining ehtiyojlariga mos mahsulotlar ishlab chiqish va samarali rag'batlantirish choralarini joriy etish orqali hayot sug'urtasi bozori nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatli tizimga aylanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda hayot sug'urtasi tizimi hali to'laqonli shakllanmagan bo'lsada, uning rivojlanishi uchun zarur asosiy omillar mavjud. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, demografik omillar, xususan aholining soni, yosh tarkibi, bandlik darajasi, urbanizatsiya va ta'lim darajasi hayot sug'urtasi xizmatlariga bo'lgan talabga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Statistik ko'rsatkichlar asosida shuni aytish mumkinki, mehnatga layoqatli va ma'lum darajada ta'lim olgan aholining hayot sug'urtasiga qiziqishi yuqori, biroq qamrov darajasi pastligicha qolmoqda. Bu esa tizimda mavjud muammolar – moliyaviy savodxonlikning etarli emasligi, xizmatlarning murakkabligi, raqamli infratuzilmaning to'liq yo'lga qo'yilmaganligi, hamda ishonch muammolari bilan bog'liqdir.

Hayot sug'urtasi bozorini rivojlantirish, aholining moliyaviy xavfsizligini oshirish va ijtimoiy himoya tizimiga qo'shimcha tayanch sifatida mustahkamlash uchun quyidagi amaliy taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish – hayot sug'urtasining ahamiyati va foydasi haqida keng targ'ibot ishlari olib borilishi zarur. Maxsus dasturlar, treninglar, mediamateriallar orqali aholiga sug'urtaning mohiyati etkazilishi kerak.

2. Maxsus sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish – yoshlar, ayollar, qishloq aholisi kabi ijtimoiy qatlamlarga mo'ljallangan, ularga mos narx va shartlarga ega maxsus hayot sug'urtasi dasturlari ishlab chiqilishi lozim.

3. Raqamli texnologiyalarni joriy etish – mobil ilovalar, onlayn shartnoma tuzish imkoniyati va elektron hisob-kitoblar orqali hayot sug'urtasi xizmatlariga kirishni soddalashtirish kerak.

4. Bankassuransiyani rivojlantirish – banklar bilan hamkorlikda mijozlarga sug'urta mahsulotlarini taklif etish orqali qamrovni kengaytirish mumkin.

5. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish – hayot sug'urtasiga soliq imtiyozlarini joriy qilish, yirik ish beruvchilarni xodimlar foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga rag'batlantirish tizimi yo'lga qo'yilishi kerak.

6. Hududiy yondashuvni ishlab chiqish – demografik ko'rsatkichlar asosida viloyat va tumanlar kesimida hayot sug'urtasi xizmatlarini maqsadli rivojlantirish kerak.

O'zbekistonda hayot sug'urtasi xizmatlarini rivojlantirish ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash, aholining farovonligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Yuqoridagi takliflar asosida strategik yondashuv shakllantirilsa, bu sohaning istiqbollari yanada kengayadi.



Xususan, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi yuqori bo'lgan hududlarda hayot sug'urtasiga qiziqish ham yuqori bo'lishi kuzatilmoqda. Shu bilan birga, aholi orasida moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi va sug'urta madaniyatining etarli darajada shakllanmaganligi bu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hayot sug'urtasining O'zbekistonda keng joriy etilishi uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish zarur: aholining moliyaviy savodxonligini oshirish, sug'urta kompaniyalarining ishonchlilikini kuchaytirish, innovation sug'urta mahsulotlarini joriy etish, shuningdek, davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, demografik omillarni chuqur tahlil qilish asosida hayot sug'urtasi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar ishlab chiqilishi, nafaqat sug'urta sohasining o'sishini, balki mamlakat aholisining ijtimoiy himoyasi va iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda ham muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Шерматов, Ш. (2020). Ўзбекистонда суғурта бозори ва унинг ривожланиши. Тошкент: Иқтисодий таҳлил институти.
2. Ахмедова, З. (2019). Жамиятдаги демографик омилларнинг иқтисодиётга таъсири. Тошкент: Ижтимоий тадқиқотлар маркази.
3. Қосимова, Н. (2021). Суғурта соҳасининг ривожланиш стратегиялари. Тошкент: «Эконопресс» нашриёти.
4. Касимов, Ш. (2018). Ўзбекистонда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари. Тошкент: "Марказий Осиё иқтисодиёти" журнали.
5. Ўзбекистон Республикаси статистикаси (2022). Ўзбекистон Республикасининг демографик кўрсаткичлари. Тошкент: Ўзстат.
6. Бекмуратов, М. (2022). Суғурта бозорида демографик омилларнинг ўрни. Тошкент: Иқтисодий таҳлил ва ривожланиш институти.
7. World Bank (2020). Uzbekistan: Life insurance and its role in the economy. Washington, D.C.: World Bank Publications.
8. International Monetary Fund (2021). The Role of Demographic Factors in Insurance Demand. Washington, D.C.: IMF Report.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>